


Yuridik shaxs maqomiga ega korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi 2022- yilning yanvar-mart oylarida **2 632,1** ming so'mni tashkil etdi va buni hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida **3 236,6** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **123 %** ni tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Payariq tumanida 2 109,1 ming so'mni (80,1 %), Paxtachi tumanida 2 145,0 ming so'mni (81,5 %), Qo'shrabot tumanida 2 146,0 ming so'mni (81,5 %) tashkil etib, shahardagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, % da)






SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm


(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2021- yil yanvar- mart	2022- yil yanvar- mart	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	2 311,4	2 632,1	113,9
Samarqand sh.	2 853,7	3 236,6	113,4
Kattaqo'rg'on sh.	2 115,2	2 450,6	115,8
tumanlar			
Oqdaryo	1 838,0	2 202,5	119,8
Bulung'ur	1 915,3	2 200,9	114,9
Jomboy	2 226,5	2 475,6	111,2
Ishtixon	1 871,6	2 182,5	116,6
Kattaqo'rg'on	1 866,5	2 164,6	116,0
Qo'shrabot	1 918,6	2 146,0	111,8
Narpay	2 239,7	2 692,6	120,2
Payariq	1 914,3	2 109,1	110,2
Pastdarg'om	2 293,7	2 555,6	111,4
Paxtachi	1 856,0	2 145,0	115,6
Samarqand	2 110,5	2 419,6	114,6
Nurobod	2 088,2	2 495,0	119,5
Urgut	2 082,2	2 304,3	110,7
Toyloq	2 036,6	2 521,3	123,8

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2022- yil yanvar-mart, viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 788,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,4 % ga ko'paygan.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 049,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga ko'paygan.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 787,4 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 745,5 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 40,0 % ga oshdi.

➤ **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4 309,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 50,0 % ga oshdi.



Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5 570,9 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 9,2 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 433,5 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga oshdi.










➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 213,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 13,9 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 922,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 20,9 % ga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)


	2021- y.	2022- y.
Samarqand viloyati	2 311,4	2 632,1
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha		
 Sanoat	2 722,3	2 788,7
 Tashish va saqlash	2 675,5	3 745,5
 Savdo	1 739,4	1 787,4
 Axborot va aloqa	2 873,8	4 309,7
 Moliya va sug'urta	5 102,2	5 570,9
 Ta'lim	2 142,1	2 433,5
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1 942,3	2 213,1
 Qurilish	2 951,8	3 049,4
 Boshqa faoliyat turlari	2 416,4	2 922,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da.

(2022- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


Samarqand viloyati bo'yicha 2022- yil yanvar-mart oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati axborot va aloqa sohasida **150,0 %**, tashish va saqlashda sohasi **140,0 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida **113,9 %**, ta'lim sohasida **113,6 %** bo'lganligi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar-mart oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqqi, ming so'mda



Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021-yil sentabr oyidan **822 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 17-avgustdagi PF 6279-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



"Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi" (66) 235-72-35